O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 20 - iyun 127-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 5-iyundagi 248-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-maydagi “Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat-xususiy sherikchilik asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 163-sonli qarori va shu asosda qabul qilingan Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 5-iyundagi 248-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddasiga asosan,

Qaror qilaman:

1. Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 5 iyundagi 248-10-0-Q/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi qaror bilan:

Shartnomaga muvofiq 2023-2024-yillarda OTB ishtirokida "Toshkent shahri va Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida 13-ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish" loyihasini (keyingi o‘rinlarda - Loyiha) amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

Loyiha doirasida davlat-xususiy sheriklikning quyidagi shakli joriy etilishi:

a) umumiy o‘rta ta’lim maktablarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish loyihasi bo‘yicha davlat sherigi etib Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi belgilanishi;

b) xususiy sherikchilik O‘zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida"gi Qonuniga muvofiq o‘tkaziladigan xalqaro tender natijalari bo‘yicha aniqlanadi hamda u bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablarini keyinchalik tasarruf etish huquqisiz qurish, jihozlash va ekspluatatsiya qilish yuzasidan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim tuzilishi;

v) xususiy sherik:

o‘z mablag‘lari va kreditlarini jalb qilish hisobiga umumiy o‘rta ta’lim maktablarini loyihalashtirish, qurish va jihozlash ishlarini amalga oshirishi;

qurilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarini davlat sherigiga foydalanishga topshirishi;

davlat-xususiy sheriklik bitimi amal qilish muddati davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini saqlash va ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq barcha zarur choralarni ko‘rishi;

davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim muddati tugagandan so‘ng umumiy o‘rta ta’lim maktablarini davlat sherigiga mulk qilib topshirishi;

g) davlat sherigi: Davlat byudjeti va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan xususiy sherik tomonidan unga foydalanishga topshirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim jarayonini tashkil etishi;

xususiy sherikka umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan erkin foydalanganlik uchun to‘lovlarni amalga oshirishi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

“Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida 12 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish” loyihasini amalga oshirish uchun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga va Toshkent viloyati hududlarida doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladigan yer maydonlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

“Toshkent viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida 12 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarini tashkil etish” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari S.Mirsagatov va Sh.Salixov viloyat hokimligi bilan birgalikda:

2023-yil 1-avgustga qadar Loyihani amalga oshirish uchun jismoniy va

yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan yer maydonlarining belgilangan tartibda jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishini hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilishini;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlari qisqarib ketishining oldini olish maqsadida 2024-yil 1-iyunga qadar ushbu qaror bilan toifasi o‘zgarayotgan sug‘oriladigan yer maydonlari maydonining besh baravari miqdorida yangi yerlar o‘zlashtirilishini ta’minlasin.

5. Quyidagilar ma’lumot uchun qabul qilinsin:

Viloyat hokimning o‘rinbosari B.Meliyev bilan birgalikda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari tashkil etilishi uchun ajratilgan yer maydonlarida tashqi muhandislik kommunikatsiyalarini qurish ishlarining tegishliligi bo‘yicha "Hududgazta’minot" AJ va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ hisobidan amalga oshirilishi;

viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi boshlig‘i E.Po‘latov, viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi boshlig‘i R.Xudaynazarov, “O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyatining “Toshkent suv ta’minoti” MCHJ boshlig‘i N.Aminov va “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining “Toshkenttelekom” filiali (Sh.Bakirov) bilan xamkorlikda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari tashkil etilishi uchun ajratilgan yer maydonlariga mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan suv-oqova, avtomobil yo‘llari, yuqori tezlikdagi Internet va boshqa zarur infratuzilmalar yetkazilishini ta’minlanishi.

6. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i N.Ubaydullayeva,
tuman hokimining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi – matbuot kotibi D.Ismailova mazkur qarorning maqsadi, vazifalari va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Saidikarimov, S.Mirsagatovlar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**